V.I.ROMONOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

DEXQONOV FARRUXJON NURIDDIN O‘G‘LI

ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI CHEGARAVIY BOSHQARISH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2022

UDK: 517.977

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I.ROMONOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

DEXQONOV FARRUXJON NURIDDIN O‘G‘LI

ISSIQLIK ALMASHINISH JARAYONINI CHEGARAVIY BOSHQARISH

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2022

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.1.PhD/FM669 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingiliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http:ik-fizmat.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Alimov Shavkat Arifdjanovich** fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Rasmiy opponentlar:	**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Fayazov Kudratillo Sadridinovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2022 yil « 28 » iyun soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9- uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (138-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2022-yil « 15 » iyun kuni tarqatildi.
(2022-yil « 15 » iyundagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A.Roziqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A.Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar ba’zi hollarda matematik fizika tenglamalari bilan tavsiflanadigan boshqarish masalalariga keltiriladi. Fizika va texnikadagi ayrim masalalarning matematik modellari parametrning ma’lum qiymatlarini olish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv jarayonlarni tavsiflaydi. Masalan, issiqlik almashinish jarayonini boshqarish yoki to‘lqin tarqalish jarayonlarini boshqarish masalasi. To‘lqin tarqalish jarayonlarida, berilgan sohaning qaysidir qismida ma'lum bir to‘lqin shakliga erishish uchun soha chegarasining bir qismida to‘lqin parametrini nazorat qilish kerak. Issiqlik almashinish jarayonida sohaning ayrim qismida berilgan o‘rtacha haroratga erishish uchun harorat parametrini soha chegarasining bir qismida nazorat qilish kerak. Shuning uchun chegaraviy boshqaruv masalalari ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb bo‘lib, zamonaviy matematikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda matematik fizikaning dolzarb muammolaridan biri chegaraviy boshqaruv masalasi hisoblanadi. Chegaraviy masalalarni o‘rganish matematik fizikaning teskari va nokorrekt qo‘yilgan muammolari bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun, ular Fredgolm yoki Volterra integral tenglamalarini o‘rganishga olib kelinadi. So‘nggi paytlarda issiqlik tarqalish jarayonlarini chegaraviy boshqarish masalalari jadal rivojlanmoqda, chunki ular amaliyotga tatbiqi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday masalalar ixtiyoriy chegaralgan sohada parabolik tipdagi tenglamalarga qo‘yilgan boshqaruv masalalarini yechishga keltiriladi. Bu borada: issiqlik almashinish jarayonlarini boshqarishning chegaraviy masalalar va qo‘shimcha integral shartli boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechish ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan matematika, fizika va optimal boshqruv yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, o‘yinlar nazaryasi va optimal boshqaruv masalalarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratildi. Oddiy differensial tenglamalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar va ularning sistemalari, oddiy differensial tenglamalar va ularning sistemalari orqali tavsiflanadigan jarayonlarni boshqarish nazariyasiga doir ajoyib natijalarga erishildi. “Funksional analiz, differensial tenglamalar va matematik fizika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari” etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda differensial tenglamalar va matematik fizika masalalarini hal qilishda chegaraviy boshqaruv masalalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarni yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romonovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnalogiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Boshqaruv masalalarining matematik nazariyasi o‘tgan asrning o‘rtalarida jadal rivojlana boshlagan. Oddiy differensial tenglamalar va ularning sistemalari uchun boshqaruv masalalarining matematik nazariyasiga L.S. Pontryagin, V.G. Boltyanskiy, R.V. Gamkrelidze, E.F. Mishchenko R. Bellmanlarning ilmiy ishlarida asos solingan va M.I. Zelikin, V.M. Tixomirovlar tomonidan rivojlantirilgan. Taxminan shu davrda kosmonavtika ehtiyoji bilan AQShda R. Bellman, La-Caol, Dj. Leytman kabi matematiklar tomonidan optimal boshqaruv masalalariga variatsion hisob, xususan, Gamilton-Yakobi usulini qo‘llashga asoslangan yondashuv rivojlantirildi. Oddiy differensial tenglamalar va ularning sistemalarini boshqarish masalalarining matematik nazariyasi bo‘yicha N.N. Krasovskiy asos solgan Yekaterinburg ilmiy maktabi vakillari A.B. Kurjanskiy, Yu.S.Osipov, A.I. Subbotin, A.V. Kryajimskiy, N.Yu. Lukoyanov, N.N. Subbotina, V.N. Ushakov va boshqalar tomonidan keng ko‘lamda tadqiqotlar olib borildi. 1970-yilda N.Yu. Satimov Toshkentda optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar nazaryasi sohasida ilmiy maktabga asos soldi. Dastlab bu maktab vakillari asosan quvish va qochish masalalari bilan shug‘ullangan bo‘lsa, XX asr oxirlaridan, xususiy hosilali differensial tenglamalarda boshqaruv masalalari bilan N.Yu. Satimov, A. Azamov, M. To‘xtasinov, M. Mamatov va boshqalar shug‘ullandilar. Xususan, A. Azamov, M. Ruziboyev va boshqalar tomonidan boshqariluvchi evalyutsion sistemalarda F.L. Cherniusko taklif etgan boshqaruv funksiyasini qurish usuli rivojlantirilmoqda.

Parabolik tipdagi xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun vaqtni optimal boshqaruv masalasi birinchi bo‘lib H.O. Fattorini va A. Friedmanlar tomonidan tadqiq qilingan. Optimal boshqarish muammolari haqida ko‘plab ma’lumotlar A.V. Fursikov va J.L. Lions monografiyalarida batafsil berilgan. Shuningdek xususiy hosilali differensial tenglamalar bilan tavsiflanadigan jarayonlar bilan bog‘liq boshqaruv masalalari K.A. Lur’e, V.A. Il’in va E.I. Moiseyev, A.G. Butkovskiy, A.I. Yegorov, E.S. Efimova, V.I. Maksimov, N. Chen, Y. Wang, D. Yang, E. Fernandez-Cara, E. Zuazua va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Mazkur dissertatsiyada o‘rganilgan parabolik tipdagi tenglamalar uchun boshqaruv masalalari bilan bog‘liq so‘nggi ilmiy natijalar Sh.A. Alimov, S. Albeverio, Z.K. Fayazova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Giperbolik tipdagi tenglamalar va ularning sistemalari orqali tavsiflanadigan jarayonlarni chegaraviy boshqarish masalalari V.A.Il'in va E.I. Moiseyevlarning ishlarida keltirilgan. Parabolik va giperbolik tipdagi tenglamalar uchun turli xil cheklovlar ostida boshqaruv masalalari Y. Luo, I. Lasieska, R. Triggiani, V. Barbu, A. Rascanu, G. Tessitore, M. Gueye, W. Littman , Sule S. Sener, Murat Sulasi, P. Cannarsa, P. Martinez, J. Vancostenoble va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Optimal boshqaruv masalalarini tatbiqlari A. Altmyuller va L. Grünelarning ishlarida uchraydi. Issiqlik tarqalish tenglamasini optimal boshqaruvining amaliy masalalari S. Dubljevic va P.D. Christofideslarning ishlarida keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari va V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti F-FA-2021-424–sonli "Butun va kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarning yechimi" mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tekislik va fazoda berilgan sohada jismni o'rtacha haroratgacha isitish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topish va asosiy integral tenglamani yechimi mavjudligini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sterjenni tez isitish uchun zarur bo'lgan minimal vaqtga baho olish hamda asosiy integral tenglamaning yechimi mavjudligini isbotlash;

berilgan sohaning qismidagi o'rtacha haroratga erishish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topish;

n-o'lchamli chegaralangan sohada jismni isitish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topish va mos integral tenglamaning yechimi mavjudligi isbotlash;

uch o'lchamli sohada o'rtacha temperatura kritik qiymatga yaqin bo'lganda, minimal vaqt harorat jarayoni parametrlariga bog'liq ekanligini isbotlash.

Tadqiqotning ob'ekti. Parabolik tipdagi tenglamalar, birinchi va ikkinchi turdagi Volterra integral tenglamalari.

Tadqiqotning predmeti. Parabolik tipdagi tenglamalar uchun qo'shimcha integral shartlar bilan berilgan chegaraviy boshqaruv masalalari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik fizikaning zamonaviy usullari, integral tenglamalar, Laplas almashtirishi va Furye qatorlari nazariyalaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

intervalda parabolik tenglama uchun boshlang'ich-chegaraviy masalada sterjenni tez isitish uchun zarur bo'lgan minimal vaqtga baho olingan hamda asosiy integral tenglamaning yechimi mavjudligi isbotlangan;

berilgan sohaning qismidagi o'rtacha haroratga erishish uchun ketadigan minimal vaqtni yuqori chegarasi topilib, asosiy integral tenglamaning yechimi mavjudligi Laplas almashtirishi usuli orqali isbotlangan;

uch o'lchamli sohada o'rtacha temperatura kritik qiymatga yaqin bo'lganda, minimal vaqt harorat jarayoni parametrlariga bog'liq ekanligi isbotlangan;

n-o‘lchamli chegaralangan sohada issiqlik almashinish tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalada berilgan jismni isitish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi dissertatsiya ishida olingan natijalar va qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlari magistrantlari va doktorantlari uchun magistratura bosqichi sifatida o‘qitilish va parabolik tipdagi tenglama uchun issiqlik almashinish jarayonlarini chegaraviy boshqarish bo‘yicha olingan natijalar boshqa turdagi tenglamalar uchun qo‘llash mumkinligidan iborat.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar matematik fizikaning zamonaviy usullari, matematik tahlil usullaridan foydalanilgan holda olingan. Olingan natijalarning isbotlari matematik jihatdan to‘g‘ri.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, masalani yechishda bir, ikki va uch o‘lchamli sohada Dirixle yoki Neyman shartlari bilan berilgan parabolik tenglamalar uchun chegaraviy boshqaruv masalalari yechimini topish usulini va berilgan sohada o‘rtacha haroratga erishish uchun ketadigan minimal vaqtga baholar olishda foydalanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa magistrlarni tayyorlashda hamda berilgan jismni o‘rtacha temperaturagacha isitish uchun ketadigan minimal vaqtni topish masalasini matematik modellashtirishda qo‘llash imkoni bilan belgilaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Issiqlik almashinish jarayonini chegaraviy boshqarish masalasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Volterra birinchi tur integral tenglamsini yadrosiga va bu yadroning Laplas almashtirishiga olingan baholardan OT-F-4-(36+32) raqamli “Matematik fizika va optimal boshqaruv masalalarini yechishning yangi usullarini ishlab chiqish+toq tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun noklassik boshlang‘ich, spektral masalalar va ularning tatbiqlari” mavzusidagi fundamental loyihada Volterra birinchi tur integral tenglamasini yechimi mavjudligini ko‘rsatishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 20-apreldagi №04/11-2261-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi bir va ikki o‘lchamli sohada parabolik tenglama uchun qo‘yilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalaning umumlashgan yechimini topish imkonini bergan;

chegarasi bo‘lakli silliq bo‘lgan chegaralangan ikki va *n*-o‘lchamli sohalarda parabolik tipdagi tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning umumlashgan yechimidan OT-F4-02 raqamli “Matematik fizikaning holatlar to‘plami cheksiz bo‘lgan modellari termodinamikasi” mavzusidagi fundamental loyihada Grin funksiyasi xossalari isbotlanishida foydalanilgan (Buxoro davlat universiteti 2022-yil 13-maydagi №04-04/01-0963-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanishi fundamental loyiha ishida matematik fizika tenglamalari uchun qo‘yilgan aralash tipdagi masalalarning umumlashgan yechimni topish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissirtatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalarini asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 86 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyasini rivijlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot berilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari belgilangan, tadqiqotning ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bayon etilgan, ilmiy-tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzulishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Sterjenni tez isitish bilan bog'liq boshqaruv masalasi"** deb nomlangan birinchi bobida parabolik tipdagi tenglama uchun intervalda boshlang'ich-chegaraviy masala qaralgan. Birinchi paragrafda issiqlik tarqalish tenglamasi uchun birinchi tur boshlang'ich-chegaraviy masalani yechimi Furye usuli bilan topilgan.

Ikkinchi paragrafda parabolik tenglama bilan bog'liq chegaraviy nazorat masalasini ko'rib chiqiladi. Sterjenni berilgan o'rtacha temperaturaga erishish uchun ketadigan minimal vaqtga baho olinadi va asosiy integral tenglamani yechimi mavjudligi ko'rsatiladi.

Biz $\Omega = \{x \in R:\ 0 < x < l\}$ sohada

$$u_t(x,t) = u_{xx}(x,t), \quad x \in (0,l), \quad t > 0, \tag{1}$$

bir jinsli issiqlik tarqalish tenglamasini

$$u(0,t) = \mu(t), \quad u(l,t) = 0, \quad t > 0, \tag{2}$$

chegaraviy shartlar va

$$u(x,0) = 0, \quad 0 \le x \le l, \tag{3}$$

boshlang'ich shart bilan ko'rib chiqamiz.

Aytaylik, $M > 0$ o'zgarmas son berilgan bo'lsin. Agar $\mu(t)$ funksiya $t \ge 0$ da differensiallanuvchi va

$$\mu(0) = 0, \quad |\mu(t)| \le M$$

shartlarni qanoatlantirsa, bu funksiya *joiz boshqaruv* deyiladi.

Biz $[0,l]$ segmentda differensiallanuvchi va

$$\rho(x) \ge 0, \quad \rho'(x) \le 0, \quad \int_0^l \rho(x)dx = 1,$$

shartlarni qanoatlantiradigan $\rho(x)$ vazn funksiyasini kiritamiz.

1-masala. Aytaylik, $\theta > 0$ o‘zgarmas son berilgan bo‘lsin. $T > 0$ ning shunday minimal qiymatini topingki, $t > 0$ uchun (1)-(3) boshlang‘ich-chegaraviy masalani $u(x,t)$ yechimi hamda $\mu(t)$ boshqaruv funksiyasi mavjud va quyidagi

$$\int_0^l \rho(x)u(x,t)dx = \theta,\ t \ge T,$$

tenglamani qanoatlantirsin.

1-teorema. Berilgan θ uchun

$$0 < \theta < \frac{M \cdot l \cdot \rho_1}{\pi}$$

shart o‘rinli va

$$T_0 = -\left(\frac{l}{\pi}\right)^2 \ln\left(1 - \frac{\theta \cdot \pi}{\rho_1 \cdot l \cdot M}\right)$$

berilgan bo‘lsin. U holda 1-masalaning $T_{\min}$ yechimi mavjud va $T_{\min} \le T_0$ baho o‘rinli bo‘ladi.

1-ta’rif. Berilgan (1) - (3) masalaning yechimi deganda

$$u(x,t) = \frac{l-x}{l}\mu(t) + \vartheta(x,t)$$

ko‘rinishda ifodalangan $u(x,t)$ funksiyani tushunamiz, bu yerda $\vartheta(x,t)$ funksiya $C\left([0,T] \to \tilde{W}_2^1\right)$ sinfdan olingan quyidagi aralash masalaning umumlashgan yechimi:

$$\vartheta_t(x,t) - \Delta\vartheta(x,y,t) = -\frac{l-x}{l}\mu'(t),$$

$$\vartheta(x,t)\big|_{\partial\Omega} = 0, \qquad \vartheta(x,0) = 0, \quad 0 \le x \le l.$$

1-lemma. Aytaylik, $g(y)$ funksiya $y \in [0,\infty)$ da nomanfiy kamayuvchi funksiya bo‘lsin. U holda quyidagi tengsizlik o‘rinli:

$$\int_0^{n\pi} g(y)\sin y dy \ge 0,\ n = 1,2,3,....$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$Q(t) = \int_0^t K(s)ds, \qquad Q^* = \lim_{t\to\infty} Q(t) = \int_0^\infty K(s)ds.$$

1-tasdiq. Aytaylik, $0 < \theta < MQ^*$ shart o‘rinli bo‘lsin. U holda $T > 0$ va haqiqiy qiymatli $\mu(t)$ o‘lchamli funksiya mavjud va quyidagi

$$\int_0^T K(T-s)\mu(s)ds = \theta \tag{4}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

2-tasdiq. Aytaylik,

$$0 < \theta < \frac{M \cdot l \cdot \rho_1}{\pi}$$

shart o‘rinli bo‘lsin. U holda shunday $T > 0$ mavjudki, quyidagi

$$T < -\left(\frac{l}{\pi}\right)^2 \ln\left(1 - \frac{\theta \cdot \pi}{\rho_1 \cdot l \cdot M}\right)$$

baho va (4) tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Ikki o‘lchamli sohada isitish jarayoni bilan bog‘liq boshqaruv masalasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida to‘g‘ri to‘rtburchak sohada issiqlik tarqalish tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala tadqiq qilingan. To‘rtburchakning qismi bo‘lgan sohadagi o‘rtacha temperaturaga erishish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topilgan.

Birinchi paragrafda berilgan chekli sohada boshlang‘ich-chegaraviy masala ko‘rib chiqilgan va masalaning yechimi Furye usulida topilgan. To‘g‘ri to‘rtburchakli sohada o‘rtacha temperaturagacha erishish uchun ketadigan minimal vaqt topish masalasi qo‘yilgan.

Berilgan chekli $\Omega = \{(x,y) \in R^2 : 0 < x < a,\ 0 < y < b\}$ sohada

$$u_t(x,y,t) = u_{xx}(x,y,t) + u_{yy}(x,y,t),\ \ (x,y) \in \Omega,\ \ t > 0, \tag{5}$$

bir jinsli issiqlik tarqalish tenglamasini

$$u(0,y,t) = \varphi(y)\mu(t),\ \ u(a,y,t) = \psi(y)\mu(t), \tag{6}$$

$$u(x,0,t) = u(x,b,t) = 0, \tag{7}$$

chegaraviy shartlar va

$$u(x,y,0) = 0,\ \ 0 \le x \le a,\ \ 0 \le y \le b, \tag{8}$$

boshlang‘ich shart bilan qaraymiz, bu yerda

$$\mu(0) = 0,\ \ \varphi(0) = \varphi(b) = 0,\ \ \ \psi(0) = \psi(b) = 0.$$

2-masala. Aytaylik, $\alpha, \beta \ge 1$ va $\theta > 0$ o‘zgarmas sonlar berilgan bo‘lsin. $T > 0$ning shunday minimal qiymatini topingki, $t > 0$ uchun (5)-(8) boshlang‘ich-chegaraviy masalani $u(x,y,t)$ yechimi hamda $\mu(t)$ joiz boshqaruv mavjud va ba’zi $T_1 > T$ uchun quyidagi tenglikni qanoatlantirsin:

$$\int_0^{b/\alpha} \int_0^{a/\beta} u(x,y,t)\,dxdy = \theta,\ \ \ T \le t \le T_1.$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\rho_{nm} = \frac{8b}{a\pi m}(\varphi_m - (-1)^n \psi_m)\sin^2\frac{n\pi}{2\beta}\sin^2\frac{m\pi}{2\alpha},\ \ \ n,m = 1,2,3,... \tag{9}$$

va $\gamma = \dfrac{\pi^2(a^2+b^2)}{a^2b^2}$.

2-teorema. Berilgan θ uchun

$$0 < \theta < \frac{\rho_{11} M}{\gamma}$$

shart o‘rinli va

$$T_0 = -\frac{1}{\gamma}\ln\left(1-\frac{\theta\gamma}{\rho_{11}M}\right)$$

berilgan bo‘lsin. U holda 2-masalaning T_{min} yechimi mavjud va $T_{min} \le T_0$ baho o‘rinli bo‘ladi.

Ikkinchi paragrafda birinchi paragrafda keltirilgan minimal vaqt masalasini yechish uchun yordamchi masalani yechish usuli qurilgan.

Uchinchi paragrafda biz birinchi paragrafda keltirilgan asosiy masalaning yechimini topish bilan shug‘ullanilgan. Bunda asosan ikkinchi paragrafda keltirilgan yordamchi masalani yechimini topishda qo‘llanilgan usullardan foydalaniladi. Ya’ni to‘rtburchakning ikki yon chetidan issiqlik oqimi berilganda, minimal vaqtga baho olingan va mos integral tenglamani yechimi mavjudligi isbotlangan.

2-ta’rif. Berilgan (5) - (8) masalaning yechimi deganda biz

$$u(x,y,t) = \mu(t)(\psi(y) + \frac{a-x}{a}(\varphi(y)-\psi(y))) - \vartheta(x,y,t)$$

ko‘rinishda ifodalangan $u(x,y,t)$ funksiyani tushunamiz, bu yerda $\vartheta(x,y,t)$ funksiya $C\left([0,T]\to\tilde{W}_2^1\right)$ sinfdan olingan quyidagi aralash masalaning umumlashgan yechimi:

$$\vartheta_t(x,y,t) - \Delta\vartheta(x,y,t) =$$

$$= \mu'(t)(\psi(y) + \frac{a-x}{a}(\varphi(y)-\psi(y))) - \mu(t)\cdot[\psi''(y) + \frac{a-x}{a}(\varphi''(y)-\psi''(y))]$$

$$\vartheta(x,y,t)|_{\partial\Omega} = 0, \quad \vartheta(x,y,0) = 0, \quad 0 \le x \le a, \quad 0 \le y \le b.$$

Ushbu

$$B(t) = \sum_{n,m=1}^{\infty} \rho_{nm} e^{-\lambda_{nm}t} \tag{10}$$

belgilashni kiritamiz, bu yerda ρ_{nm} (9) tenglik bilan ifodalaniladi.

Quyidagi asosiy integral tenglamani qaraymiz:

$$\int_0^t B(t-s)\mu(s)ds = f(t), \ t > 0. \tag{11}$$

Biz

$$\| f \|^2_{W_2^2(R_+)} \le M_0$$

shartni qanoatlantiradigan va $t \le 0$ uchun $f(t) = 0$ bo‘ladigan $f \in W_2^2(-\infty,+\infty)$ funksiyalar to‘plamini $W\left(M_0\right)$ orqali belgilaymiz.

2-lemma. Shunday $M_0 > 0$ mavjudki, har qanday $f \in W\left(M_0\right)$ funksiya uchun (11) tenglamaning $\mu(t)$ yechimi mavjud va

$$\left|\mu(t)\right| \le M$$

baho o‘rinli bo‘ladi.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$Q(t)=\int_0^t B(s)ds,\quad Q^*=\lim_{t\to\infty}Q(t)=\int_0^\infty B(s)ds.$$

3-tasdiq. Aytaylik, $0<\theta<MQ^*$ shart o‘rinli bo‘lsin. U holda $T>0$ va haqiqiy qiymatli $\mu(t)$ o‘lchovli funksiya mavjud va quyidagi tenglik o‘rinli:

$$\int_0^T B(T-s)\mu(s)ds=\theta. \tag{12}$$

4-tasdiq. Aytaylik,

$$0<\theta<\frac{\rho_{11}M}{\gamma}$$

shart o‘rinli bo‘lsin. U holda shunday $T>0$ mavjudki, ushbu

$$T<-\frac{1}{\gamma}\ln\left(1-\frac{\theta\gamma}{\rho_{11}M}\right)$$

baho va (12) tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Chegaralangan sohada issiqlik almashinish jarayonini chegaraviy boshqarish masalasi”** deb nomlangan uchinchi bobida biz chegaralangan sohada issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalani tadqiq qilingan. Boshqaruv parametri issiq yoki sovuq havoning chiqishi kattaligiga teng va chegaraning ma’lum bir qismida aniqlangan.

Birinchi paragrafda *n*-o‘lchamli chegaralangan sohada issiqlik almashinish tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala ko‘rib chiqildi. Berilgan jismni isitish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topiladi va mos integral tenglamaning yechimi mavjudligi isbotlangan.

Biz $\partial\Omega$ chegarasi bo‘lakli silliq bo‘lgan chegaralangan $\Omega\subset\mathbb{R}^n$ sohada

$$u_t(x,t)=\Delta u(x,t),\quad x\in\Omega,\quad t>0, \tag{13}$$

issiqlik tarqalish tenglamasini ushbu

$$\frac{\partial u}{\partial n}+h(x)u(x,t)=0,\quad x\in\partial\Omega\setminus\Gamma,\quad t>0, \tag{14}$$

$$\frac{\partial u}{\partial n}=a(x)\mu(t),\quad x\in\Gamma,\quad t>0, \tag{15}$$

chegaraviy shartlar va

$$u(x,0)=0, \tag{16}$$

boshlang‘ich shart bilan qaraymiz.

Biz $x\in\Gamma$ uchun $h(x)=0$ va $x\notin\Gamma$ uchun $a(x)=0$ larni kiritish orqali ikkala $h(x)$ va $a(x)$ funksiyalarni butun chegara $\partial\Omega$ ga kengaytira olamiz. Bu holda (14) va (15) shartlarni

$$\frac{\partial u(x,t)}{\partial n}+h(x)u(x,t)=a(x)\mu(t),\quad x\in\partial\Omega,\quad t>0, \tag{17}$$

ko‘rinishda yozib olamiz.

Aytaylik, $M>0$ o‘zgarmas son berilgan bo‘lsin. Agar $\mu(t)$ funksiya $t\ge 0$ da o‘lchovli va ushbu

$$|\mu(t)|\le M$$

shartni qanoatlantirsa bu funksiya *joiz boshqaruv* deyiladi.

Aytaylik $\rho:\overline{\Omega}\to R$ uzluksiz funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$\int_\Omega \rho(x)dx=1,\quad \rho(x)>0.$$

3-masala. Aytaylik, $\theta>0$ o‘zgarmas son berilgan bo‘lsin. $T>0$ ning shunday minimal qiymatini topingki, $t>0$ uchun (13)-(16) boshlang‘ich-chegaraviy masalani $u(x,t)$ yechimi hamda $\mu(t)$ joiz boshqaruv mavjud va quyidagi

$$\int_\Omega \rho(x)u(x,t)dx=\theta,\ t\ge T, \tag{18}$$

tenglikni qanoatlantirsin.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$d_0=\min_{x\in\Omega\cup\partial\Omega}\rho(x) \tag{19}$$

va

$$B_k=\frac{1}{\Lambda_k}\int_{\partial\Omega}\vartheta_k(x)a(x)d\sigma(x),\ \text{bu yerda}\ \ \Lambda_k=\|\vartheta_k(x)\|_{C(\bar\Omega)}. \tag{20}$$

3-teorema. Aytaylik, θ uchun

$$0<\theta<\frac{d_0B_1M}{\lambda_1}$$

shart o‘rinli va

$$T_0=-\frac{1}{\lambda_1}\ln\left(1-\frac{\theta\lambda_1}{d_0B_1M}\right)$$

berilgan bo‘lsin. U holda 3-masalaning T_{min} yechimi mavjud va $T_{min}\le T_0$ baho o‘rinli bo‘ladi.

Quyidagi Grin funksiyasini kiritamiz:

$$G(x,y,t)=\sum_{k=1}^{\infty}e^{-\lambda_k t}\vartheta_k(x)\vartheta_k(y),\ x\in\Omega,\ y\in\Omega,\ t>0.$$

5-tasdiq. Aytaylik barcha $x\in\partial\Omega$ da $h(x)\ge 0$ bo‘lsin. U holda (13)-(16) boshlang‘ich-chegaraviy masalaning yechimi bo‘lgan Grin funksiyasi nomanfiy bo‘ladi.

Quyidagi belgilashni kiritamiz:

$$H(x,t)=\int_\Omega\rho(y)G(x,y,t)dy,\ x\in\Omega,\ t>0. \tag{21}$$

6-tasdiq. Aytaylik, Λ_1 mavjud bo‘lsin. U holda quyidagi baho o‘rinli:

$$H(x,t)\ge\frac{d_0}{\Lambda_1}e^{-\lambda_1 t}\vartheta_1(x).$$

Quyidagi belgilashni kiritamiz:

$$R(t)=\int\limits_{\partial\Omega}H(y,t)a(y)d\sigma(y). \tag{22}$$

7-tasdiq. Ushbu

$$R(t)\ge d_0B_1e^{-\lambda_1 t}$$

baho o‘rinli, bu yerda B_1 koeffitsient (21) orqali aniqlanadi.

Ma’lumki (13) + (15) + (17) boshlang‘ich-chegaraviy masalaning yechimi Grin funksiyasi orqali quyidagicha topialdi:

$$u(x,t)=\int\limits_0^t\mu(s)ds\int\limits_{\partial\Omega}G(x,y,t-s)a(y)d\sigma(y).$$

(13)-(16) aralash masalaning yechimi hamda (18) shart va (22) tenglikdan biz

$$\int\limits_0^t R(t-s)\mu(s)ds=\theta,\quad t\ge T, \tag{23}$$

asosiy integral tenglamani olamiz.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$Q(t)=\int\limits_0^t R(s)ds,\qquad Q^*=\lim_{t\to\infty}Q(t)=\int\limits_0^\infty R(s)ds.$$

8-tasdiq. Aytaylik, $0<\theta<MQ^*$ shart o‘rinli bo‘lsin. U holda $T>0$ va haqiqiy qiymatli $\mu(t)$ o‘lchovli funksiya mavjud va quyidagi

$$\int\limits_0^T R(T-s)\mu(s)ds=\theta \tag{24}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

9-tasdiq. Aytaylik,

$$0<\theta<\frac{d_0B_1M}{\lambda_1}$$

shart o‘rinli bo‘lsin. U holda shunday $T>0$ mavjudki, ushbu

$$T<-\frac{1}{\lambda_1}\ln\left(1-\frac{\theta\lambda_1}{d_0B_1M}\right) \tag{25}$$

baho va (24) tenglik o‘rinli bo‘ladi.

10-tasdiq. Aytaylik, $T>0$ (24) tenglamani va (25) shartni qanoatlantirsin. U holda shunday $T_1>T$ va haqiqiy qiymatli $\mu(t)$ funksiya mavjud, shuning uchun $|\mu(t)|\le M$ va ushbu

$$\int\limits_\Omega\rho(x)u(x,t)dx=\theta,\ T\le t\le T_1,$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Ikkinchi paragrafda uch o‘lchamli sohada o‘rtacha temperatura kritik qiymatga yaqin bo‘lganda, minimal vaqt harorat jarayonining parametrlariga bog‘liqlik ekanligi isbotlangan.

Biz $\partial\Omega$ chegarasi bo‘lakli silliq bo‘lgan chegaralangan $\Omega \subset \mathbb{R}^3$ sohada (13)-(16) aralash masalani ko‘rib chiqamiz.

Aytaylik, $\rho : \overline{\Omega} \to R$ funksiya quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

$$\int_{\Omega} \rho(x)dx = 1, \quad \rho(x) \geq 0.$$

Har qanday $\theta > 0$ uchun quyidagi belgilashni kiritamiz:

$$\int_{\Omega} u(x,t)\rho(x)dx = \theta. \tag{26}$$

Biz haroratning o‘rtacha qiymati θ ga erishish uchun ketadigan minimal vaqtni $T(\theta)$ orqali belgilaymiz. Buning ma’nosi (26) tenglik $t = T(\theta)$ uchun bajariladi va $t < T(\theta)$ uchun bajarilmaydi.

Biz quyidagi funksiyani ko‘rib chiqamiz:

$$U(t) = \int_{\Omega} u(x,t)\rho(x)dx. \tag{27}$$

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\theta^* = M \int_{\Gamma} [(-\Delta)^{-1}\rho(x)]a(x)d\sigma(x) \tag{28}$$

va

$$b = \frac{M}{\lambda_1} \cdot (\rho, \vartheta_1) \int_{\Gamma} \vartheta_1(y)a(y)d\sigma(y). \tag{29}$$

4-teorema. Aytaylik, $\theta^* > 0$ (28) tenglik bilan aniqlangan bo‘lsin. U holda quyidagilar o‘rinli:

1) $0 < \theta < \theta^*$ intervaldan olingan θ uchun $T(\theta)$ mavjud va quyidagilar o‘rinli:

$$U(t) < \theta, \quad 0 < t < T(\theta), \quad U\big(T(\theta)\big) = \theta.$$

2) $\theta \to \theta^*$ uchun quyidagi

$$T(\theta) = \frac{1}{\lambda_1} \ln \frac{1}{\varepsilon(\theta)} + \frac{1}{\lambda_1} \ln b + O(\varepsilon^{(\lambda_2 - \lambda_1)/\lambda_1})$$

baho o‘rinli, bu yerda $\varepsilon = |\theta^* - \theta|$.

3) $\theta \geq \theta^*$ uchun $T(\theta)$ mavjud emas.

Quyidagi belgilashni kiritamiz:

$$H(x,t) = \int_{\Omega} \rho(y)G(x,y,t)dy, \ x \in \Omega, \ t > 0. \tag{30}$$

Bunda biz $L_2(\Omega, dx)$ dagi spektral teoremadan foydalanib

$$H(x,t) = \int_0^{\infty} e^{-\lambda t} dE_{\lambda}\rho(x)$$

tenglikni yozishimiz mumkin.

Biz (30) tenglikda aniqlangan funksiyani

$$H(x,t) = (\rho, \vartheta_1)e^{-\lambda_1 t}\vartheta_1(x) + H_1(x,t), \quad t \geq 0, \tag{31}$$

ko‘rinishda yozib olamiz, bu yerda

$$H_1(x,t)=\int_{\lambda_2}^{\infty}e^{-\lambda t}dE_\lambda\rho(x).$$

Quyidagi belgilashni kiritamiz:

$$G_2(x,y)=\sum_{k=2}^{\infty}\frac{\vartheta_k(x)\vartheta_k(y)}{\lambda_k^2}.$$

11-tasdiq. $H_1(x,t)$ funksiya uchun

$$|H_1(x,t)|\le\|\Delta\rho\|\cdot\sqrt{G_2(x,x)}e^{-\lambda_2 t},\quad t\ge 0,$$

baho o‘rinli.

Ushbu

$$K(t)=\int_{\Gamma}H(y,t)a(y)d\sigma(y) \tag{32}$$

funksiyani kiritamiz.

(13)-(16) aralash masalaning yechimi hamda (27) shart va (32) tenglikdan

$$\int_0^t K(t-s)\mu(s)ds=U(t)$$

asosiy integral tenglamani olamiz.

12-tasdiq. Aytaylik $f(r)$ funksiya $(0,1]$ intervalda o‘suvchi va $\beta>0$ uchun

$$f(r)=br+O(r^{1+\beta})$$

ko‘rinishda aniqlangan bo‘lsin. U holda $r=f^{-1}(s)$ teskari funksiya uchun ushbu

$$\ln\frac{1}{r}=\ln\frac{1}{s}+\ln b+O(s^{\beta})$$

baho o‘rinli, bu yerda $b>0$.

XULOSA

Parabolik tipdagi tenglamalar bilan ifodalanadigan jarayonlarni chegaraviy boshqarishning asosiy muammosi optimal vaqtni topish va ruxsat etilgan boshqaruv funksiyasini mavjudligini isbotlashdir.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Bir o‘lchamli va ikki o‘lchamli sohalarda parabolik tipdagi tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalaning umumlashgan yechimlari topildi.
2. Berilgan intervalda parabolik tenglama uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalada sterjenni tez isitish uchun zarur bo‘lgan minimal vaqtga baho olindi.
3. To‘g‘ri to‘rtburchakli sohada issiqlik almashinish tenglamasi qo‘shimcha integral shart ostida tadqiq qilindi. Berilgan sohaning qismidagi o‘rtacha haroratga erishish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topildi va asosiy integral tenglamaning yechimi mavjudligi Laplas almashtirishi usuli orqali isbotlandi.
4. Uch o‘lchamli sohada o‘rtacha temperatura kritik qiymatga yaqin bo‘lganda, minimal vaqt harorat jarayoni parametrlariga bog‘liq ekanligi isbotlandi.
5. $n-$o‘lchamli chegaralangan sohada issiqlik almashinish tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala tadqiq qilindi. Qo‘shimcha integral shart ostiga musbat aniqlangan vazn funksiyasi qo‘yilganda, berilgan jismni o‘rtacha temperaturagacha isitish uchun ketadigan minimal vaqtga baho topildi va mos integral tenglamaning yechimi mavjudligi isbotlandi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I.ROMANOVSKIY

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

DEXQONOV FARRUXJON NURIDDIN O‘G‘LI

THE BOUNDARY CONTROL OF THE HEAT EXCHANGE PROCESS

01.01.02-Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2022

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number № B2022.1.PhD/FM669.

Dissertation has been prepared at National University of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:	**Alimov Shavkat Arifdjanovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Academician
Official opponents:	**Durdiev Durdimurod Kalandarovich** Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Professor
	Fayazov Kudratillo Sadridinovich Doctor of Sciences in Physics and Mathematics, Professor
Leading organization:	**Fergana State University**

Defense will take place « 28 » June 2022 at 16:00 at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 207-91-40, e-mail : uzbmath@umail.uz, Website : www.mathinst. uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource centre at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy (is registered № 138) (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99871) 207-91-40).

Abstract of dissertation sent out on « 15 » June 2022 year
(Mailing report № 2 on « 15 » June 2022 year)

U.A.Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Professor

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Senior researcher

A.A.Azamov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

INTRODUCTION

Actuality and demand of the theme of the thesis. Many scientific and practical studies at the world level, in many cases, are reduced to the study of the theory of control of systems described by the equations of mathematical physics. Scientific applied research can be reduced to the problems of managing various systems. Mathematical models of some problems in physics and technology describe processes in which it is necessary to control the process in such a way as to obtain certain parameter values. An example is the problem of heat transfer control or wave processes. In the case of wave processes, it is necessary to control the wave parameter on a part of the region boundary in order to achieve a certain waveform in some part of the given region. In the case of heat transfer, it is necessary to control the temperature parameter on a part of the region boundary in order to achieve a given average temperature in some part of the region. Therefore, boundary control problems are both theoretically and practically relevant and are considered one of the topical areas of modern mathematics.

At present, one of the topical problems of mathematical physics is boundary control. The study of boundary problems is closely related to the inverse and ill-posed problems of mathematical physics, so they also reduce to the study of Fredholm or Volterra integral equations (more often to the Volterra equation of the first kind). Recently, the control of heat transfer processes from various points of view has been intensively developed, since they are closely related to the tasks of the application. Especially in the bounded domain, the solution of boundary control problems of parabolic type equations is a topical issue. Control problems for mathematical physics equations often lead to the first type of Volterra integral equation, and the Laplace transform method is used to prove that there exists is a solution to this equation. Therefore, the study of boundary problems of control of heat transfer processes is relevant, both from the point of view of theory and application.

In our country, special attention was paid to topical areas of mathematical physics and optimal control, which have scientific and practical applications in the fundamental sciences. In particular, special attention was paid to the study of optimal control and game theory. Significant results have been obtained in the control theory of processes described by ordinary differential equations and their systems, partial differential equations and their systems. “Conducting scientific research at the level of international standards in the priority areas of mathematical sciences in the field of functional analysis, differential equations and mathematical physics are the main tasks and directions”[1]. In the implementation of this decision, the development of the solution of boundary value problems for differential equations and equations of mathematical physics is of great importance.

